
“QUMARIQ” MFYDAGI ICHKI KO‘CHALAR ASFALTLASHGA TAYYORLANMOQDA

Ayni kunlarda Toshloq tumanining barcha qishloqlarida bunyodkorlik ishlari ketmoqda. Aholiga shart-sharoitlar yaratib berish maqsadida ichimlik suvi, elektr energiyasi ta'minotini yaxshilash, ichki yo'llarni asfaltlash hamda shag'allashtirish ishlari jadal sur'atlarda olib borilmoqda. Prezidentimizning "2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 408-sonli Qarori doirasida tumandagi "Qumariq" MFYda ichki yo'llarning asfaltlashga tayyorlash ishlari boshlab yuborildi. Qarorga ko'ra, "Qumariq" MFY hududida 8 km masofadagi ichki ko'chalarni asfalt qilish rejalashtirilgan. Ushbu yo'llarni ta'mirlash ishlari uchun davlat byujetidan 2 mlrd 390 million so'm mablag' ajratilgan.

2023-03-02 10:43:04